

“TASDIQLAYMAN”

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”**



milliy tadqiqot universiteti rektori

B.S.Mirzayev

” 28 01 2026 yil

**“Journal of Mathematical Models and Methods in
Engineering”**

**jurnali tahririyatining
NIZOMI**

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizom “**Journal of Mathematical Models and Methods in Engineering**” ilmiy-amaliy jurnali tahririyatining (bundan keyin matnda “Tahririyat” deb yuritiladi) huquqini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi.

1.2. Ilmiy-amaliy jurnal O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-dekabrda “Ommaviy axborot va kommunikatsiyalar sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga hamda boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, tahririyat faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilaydi.

1.3. **OAV muassisi** - “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti (bundan buyon “Muassis” deb yuritiladi).

1.4. **OAV turi** – ilmiy-amaliy jurnal.

1.5. **OAV nomi** - Journal of Mathematical Models and Methods in Engineering.

1.6. **OAVning tili** – ingliz.

1.7. **OAV** ning maqsad va vazifalari:

-Muhandislik muammolariga matematik va hisoblash yo‘nalishlarida yondashuvlarni rivojlantirish, nazariy va amaliy jihatdan qimmatli usullarni ilmiy jamoatchilikka taqdim etish, fan va texnologiya o‘rtasidagi bog‘lanishni mustahkamlash;

-Muhandislik tizimlarini matematik modellashirishning nazariy asoslari, yangi hisoblash metodlari va algoritmlari, ularning dasturiy ta‘minotda qo‘llanilishi, sonli va analitik echimlarning yaqqol isbotlangan natijalarini nashr etish;

-Universitet, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning natijalarini o‘z sahifalarida keng yoritish, olimlar, o‘qituvchilar, doktorantlar va muhandislar o‘rtasida bilim almashinuvini ta‘minlash;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarida belgilangan fan, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirishdagi ustuvor yo‘nalishlar, shuningdek, muhandislik ta‘limi va ilmiy-tadqiqotlarini rivojlantirishga qaratilgan me‘yoriy hujjatlarni aks ettiruvchi tahliliy sharhlarni e‘lon qilish;

-Muhandislik sohasida matematik usullarning qo‘llanilishi orqali yangi yechimlar, innovatsion texnologiyalar va energiya tejovchi yondashuvlarni keng targ‘ib qilish, ilmiy-amaliy tavsiyalar bilan ta‘minlash;

-Muhandislar, matematiklar va dasturchilarning intellektual salohiyatini oshirish, ularga nazariy va amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan matematik vositalar, modellar va usullar haqida bilim berish;

-Muhandislikda interdisipliner tadqiqotlarni rag‘batlantirish, matematika fanining nazariy yutuqlarini amaliy muhandislik loyihalariga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rsatish;

-Xalqaro ilmiy hamjamiyatning eng yangi rivojlanishlari, yangi metodologik yondashuvlar va muhandislik matematikasi sohasidagi global trendlar haqida ma'lumot tarqatish;

-Jurnal o'z o'quvchilari va mualliflariga muhandislikning dolzarb muammolarini zamonaviy matematik apparat yordamida yoritish, izlanishlar natijalarini muhokama qilish va ularni amaliyotga joriy etish uchun ilmiy platforma bo'lib xizmat qiladi.

1.8. OAV ixtisoslashuvi: Muhandislikning turli sohalarida (qurilish, mashinasozlik, energetika, gidrotexnika, materialshunoslik, atrof-muhit muhofazasi, robototexnika va boshqalar) matematik modellash, raqamli usullar, hisoblash algoritmlari, optimallashtirish va analitik yondashuvlar bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning so'ngi natijalarini, ilmiy-amaliy izlanishlarni e'lon qiladigan xalqaro ilmiy jurnal.

1.9. OAVning davriyligi: Jurnal har chorakda 1 martagacha chop etiladi.

1.10. OAVning shakli: elektron formatda.

1.11. OAV tahririyatining manzili: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy.

1.12. OAVning rasmiy veb-sayti: <https://jmmme.uz/>

1.12. OAVning tashkiliy-huquqiy shakli: "Journal of Mathematical Models and Methods in Engineering" ilmiy-amaliy jurnali "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti tarkibiy bo'linmasidir va u alohida yuridik shaxs hisoblanmaydi.

II. MUASSISNING HUQUQLARI

2.1. Muassis quyidagi huquqlarga ega:

- qonunchilikda va mazkur Nizomda ko'zda tutilgan tartibda tahririyatni boshqarishda ishtirok etish, uning ommaviy axborot vositalariga, tegishli qonunlarga rioya qilishini ta'minlash;
- nashr tahririyatini moddiy va ma'naviy tomonlama yuqori saviyaga olib chiqish hamda yuksaltirish uchun nazariy va amaliy ko'mak ko'rsatish;
- tahririyat faoliyati samaradorligini oshirishga va uning moddiy texnik negizini kuchaytirishga qaratilgan takliflarini ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- tahririyatni mulk kompleksi sifatida uchinchi shaxsga (ishonchli boshqaruvchiga) ishonchli boshqarishga berishi mumkin. Ishonchli boshqaruvchi esa boshqaruvni qonunchilikka muvofiq muassis yoki u ko'rsatgan uchinchi shaxs manfaatiga mos holda amalga oshirish;
- tahririyatning Bosh muharririni ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish;
- tahrir hay'ati a'zolarini tasdiqlash;
- tahririyatga faoliyatini amalga oshirishda ko'mak berish;
- tahririyatda ishlash uchun xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish, mehnat va ishlab chiqarish shartnomalarini tuzish, xodimlar shtat jadvalini tuzish, tahririyat xodimlarining vazifalarini belgilash;
- mehnat shartnomasi va jamoatchilik asosida ishlaydigan xodimlarni ishga qabul qilish va bo'shatish;

- o'z vakolati doirasida tahririyatning barcha xodimlari uchun majburiy ishlab chiqarish buyruqlarini chiqarish;
- eng katta hajmi va chiqariladigan muddati tahririyat nizomiga yoki muassis va tahririyat o'rtasidagi shartnomaga muvofiq belgilanadigan, reklama tusida bo'lmagan xabar yoki materialni o'z nomidan ommaviy axborot vositasida bepul joylashtirishni hal qilish;
- tahririyat faoliyatiga oid muassis vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish;
- tahririyatning faoliyatini qonunchilikka muvofiq tugatish va qayta tashkil etish. Tahririyat tugatilganda barcha kreditorlar bilan hisob-kitoblar to'liq amalga oshirilganidan hamda byudjet oldidagi barcha majburiy to'lovlar to'lab bo'lingandan so'ng, qolgan moddiy va mablag' shaklidagi mulkni tasarruf etish; Muassis qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

III. MUASSIS MAJBURIYATLARI

3.1. Muassis majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- tahririyatni tashkil etish;
 - tahririyat Nizomini tasdiqlash;
 - tahririyat bilan shartnoma tuzish;
 - tahririyat Nizom qoidalariga rioya etish;
 - belgilangan tartibda tahririyatga nisbatan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;
 - tahririyat tomonidan qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash;
 - muassis ustav fondi o'zgarganda, buning natijasida chet el investitsiyasining ulushi o'ttiz foizdan yuqori bo'lib ketgan taqdirda ro'yxatga oluvchi organga xabar qilishi shart;
 - tahririyat moddiy texnik bazasini mustahkamlash;
 - tahririyat hodimlariga belgilangan tartibda oylik maoshlari, mukofotlar, moddiy yordamlar, mehnat ta'tillari mablag'lari bilan bog'liq harajatlarini to'lab borish;
- 3.2. Muassis senzura qilishga, retsenziyalashga yoki tahririyatning ijodiy va moliya-xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishga haqli emas.
- 3.3. Muassis amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

IV. TAHRIRIYATNING HUQUQLARI

4.1. Tahririyat quyidagi huquqlarga ega:

- tahririyat yillik ish rejasi, xarajatlar smetasi va boshqa faoliyatni rivojlantirishga doir takliflar ishlab chiqish;
- axborot ishlash, to'plash va tarqatish;
- axborot olish uchun davlat organlari, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxona va muassasalar, tashkilotlarga murojaat qilish;
- davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan axborotlardan tashqari boshqa axborotlardan foydalanishi;

- ma'lumotlarni belgilangan tartibda yozib olish, bunda turli texnik vositalardan foydalanishi mumkin.
- materiallarni tahrir qilish, uning mazmuni buzilgan hollarda uni chop etishdan olib qolish, materiallarni tekshirish uchun soha olimlari, korxona va tashkilotlar mutaxassislariga murojaat qilish. Qonuniy asoslarga ko'ra mualliflardan olingan materiallarni chop etishni rad etish;
- muassis bilan shartnoma tuzish;
- tahririyat texnosfera xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, fuqaro muhofazasi va mehnat muhofazasiga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda yaqin istiqbolga mo'ljallangan dasturlar, davlat dasturlari bo'yicha bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida tayyorlangan ilmiy maqolalar, tahliliy-tavsiyaviy yo'nalishdagi ilmiy-ommabop materiallarni qabul qilishi mumkin.

V. TAHRIRIYATNING MAJBURIYATLARI

5.1. Tahririyat majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'z Nizomi va sohaga oid qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash;
- chop etilayotgan materiallarning to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirish;
- muassisa tegishli moliyaviy zararni qoplaydi;
- chop etilayotgan materiallarning sifatli bo'lishini, jurnalni belgilangan muntazamlikda chiqishini ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra man etilgan, konstitutsion tuzumni, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish; urush, zo'ravonlik va terrorizmni, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalarini targ'ib qilish, davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor etish, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi axborot tarqatish, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ'ib qilish, pornografiyani targ'ib qilish, qonunga muvofiq jinoiy va o'zga javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa harakatlarni sodir etish maqsadida foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi;
- ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'sini tahqirlash, shaxsiy hayotiga aralashish ta'qiqlanadi;
- chop etish uchun tayyorlangan maqolalarni tahrir hay'ati a'zolariga taqdim etish va chop etishga tayyorlanishini ta'minlash;
- tahririyat xodimlariga zarur ish sharoiti va turli moddiy-ma'naviy rag'batlantirishni, ularning kasbiy mahoratini oshirishda amaliy ko'mak berish;
- tahririyat O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, respublika hamda chet el ilmiy-tadqiqot va ilmiy-loyiha institutlari, oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni keng ommaga targ'ib qilish;
- qabul qilingan maqolalarni ekspertizadan o'tkazish, tahrir qilish, mazmun mundarijasini belgilash, jurnalni sifatli va o'z vaqtida chop etilishini ta'minlash.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, jahonda va respublikamizda ilm-fan sohasiga doir ixtirolar, yangiliklar, yetuk olimlar, ilmiy

tadbirlar haqida axborot berish, magistrantlar, tayanch doktorantlar, ilmiy xodimlar va professor-o'qituvchilarning dolzarb mavzulardagi ilmiy maqolalarini chop etish.

5.3. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini mustahkamlash, milliy mafkurani shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlarni, millatlararo do'stlikni hamda insonparvarlikni tarbiyalovchi materiallarni nashr etish.

5.4. Boshqa davriy nashrlar va tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlik qilish.

5.5. Muassis o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlariga bo'ysunish va uning topshiriqlarini ko'rsatilgan muddatda amalga oshirish.

5.6. Obunachilar oldida to'la javobgar bo'ladi.

VI. TAHRIRIYATNI MOLİYALASHTIRISH MANBALARI

6.1. Tahririyat alohida yuridik shaxs hisoblanmaydi, moliyaviy faoliyatini mustaqil amalga oshirmaydi.

6.2. Muassis jurnal bilan bog'liq doimiy harajatlarni o'z zimmasiga oladi. Shuningdek, tahririyatni bino hamda zarur texnik anjomlar, johozlar bilan ta'minlaydi. Kelgusida jurnal faoliyatida reklama-tijorat va axborot xizmatlarini keng joriy qilish, homiylik yordamlari hamda tahririyat Nizomida belgilangan boshqa xizmat turlari orqali topiladigan mablag'lar ham moliyaviy manba sanaladi.

6.3. Tahririyat axborot, reklama, disayn va belgilangan tartibda vakolatli organdan tegishli ruxsatnoma olganidan keyin manbaa xizmatlari ko'rsatish orqali ham iqtisodiy ahvolini yaxshilashi mumkin.

6.4. Tahririyatni moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

a) chakana savdodan tushgan mablag'lar;

b) muassis va homiyilar tomonidan ajratiladigan mablag'lar;

v) reklama va shartnomaviy materiallardan tushgan mablag'lar;

g) obunadan tushgan mablag'lar;

d) maqola nashr qilish uchun to'langan mablag'lar.

6.5. Tahririyat jurnal xizmatlari narxlarini bozor talablaridan kelib chiqib mustaqil baholaydi, boshqa xizmatlar haqini belgilaydi.

VII. TAHRIRIYAT BOSHQARUV ORGANLARINI SHAKLLANTIRISH TARTIBI

7.1. Tahririyat bosh muharrir va tahririyat xodimlari jamoasidan iborat.

7.2. Tahririyat Bosh muharriri "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti rektori buyrug'i bilan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

7.3. Bosh muharrir tahririyat ishiga rahbarlik qiladi. OAVning chiqarilishini ta'minlash va uning mazmuni uchun javobgar shaxsdir.

7.4. Bosh muharrir "Journal of Applied Linguistics and Educational Research" ilmiy-amaliy jurnalining faoliyatiga shaxsan mas'ul hisoblanadi hamda jurnalni nashr etish uchun qonun, muassis va jamoa oldida mas'ul.

7.5. Bosh muharrir tahrir hay'ati tarkibini tuzishda va tasdiqlashda muassissga taklif kiritadi.

VIII. FOYDANI TAQSIMLASH VA ZARARNING O'RNINI QOPLASH TARTIBI

8.1. Tahririyatning moliyaviy natijalari har bir moliya yili tugagach, keyingi yilning birinchi choragi oxirigacha yilda bir marta ko'rib chiqiladi.

U jurnalni tayyorlash, chop etish, xodimlarning ish haqi, ularni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy muhofaza qilish, mualliflarga to'lanadigan qalam haqi, tahririyat moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun ishlatilgandan qolgan sof foydadan tashkil topadi.

8.2. Tahririyat faoliyatidan paydo bo'lgan zarar qonunda ko'rsatilgan tartibda muassis tomonidan qoplanadi.

8.3. Tahririyat faoliyatidan hamda kutilmagan hollardagi sabablar bilan ko'rilgan zarar avvalgi yillardagi faoliyatning sof foydasidan shakllantirilgan mablag'dan qoplanishi mumkin.

IX. OAV CHIQARILISHINI TO'XTATIB TURISH YOKI TUGATISH ASOSLARI VA TARTIBI

9.1. OAVning chiqarilishini to'xtatib turish yoki tugatish ro'yxatdan o'tkazuvchi organing da'vo arizasi asosida sudning qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

9.2. Muassis OAVning chiqarilishini tahririyat Nizomida yoki Muassis va Tahririyat o'rtasidagi tuzilgan shartnoma nazarda tutilgan hollarda hamda tartibda to'xtatib turish yoxud tugatishga haqlidir. Muassis OAVning chiqarilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilganidan keyin o'z qarori haqida ro'yxatdan o'tkazuvchi organi uch kun ichida yozma shaklda xabardor etadi.

9.3. OAVning chiqarilishini tugatish to'g'risida sud tomonidan qaror qabul qilish uchun asos bo'lishi mumkin:

- OAV to'g'risidagi qonun hujjatlari tahririyat tomonidan muntazam ravishda buzib kelinganligi, bu haqda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan muassis va tahririyat nomiga yozma ogohlantirishlar yuborilganligi;
- sudning OAVning chiqarishni to'xtatib turish haqidagi qarori bajarilmaganligi;
- OAVning olti oy chiqarilmaganligi;
- qonun hujjatlarida belgilangan boshqa holatlar;
- Ommaviy axborot vositasining chiqarilishini tugatish uning ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi tugatilishiga sabab bo'ladi.

9.4. Muassis tomonidan OAVning chiqarilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda tahririyat muassisning ruxsati bilan ayni shu nomdagi ommaviy axborot vositasini belgilangan tartibda ta'sis etishga haqlidir. Bunday hollarda ommaviy axborot vositasini qayta ro'yxatdan o'tkazish talab etiladi.

9.5. Tahririyat faoliyati tugatilayotgan taqdirda muassis tomonidan tuzilgan tugatish komissiyasi tahririyat rahbarligini zimmasiga oladi va belgilangan muddat ichida tahririyat faoliyatini tugatishga doir barcha ishlarni amalga oshiradi.

X. TAHRIRIYAT FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH TARTIBI

- 10.1. Tahririyat faoliyati muassis tomonidan yoki sudning qaroriga ko'ra to'xtatilishi yoki tugatilishi mumkin.
- 10.2. Tahririyat faoliyati muassis yoki sudning qaroriga ko'ra to'xtatilgan (yoki tugatilgan) taqdirda tahririyat tegishli qonunlarga muvofiq qaytadan xuddi ana shu nomda ommaviy axborot vositasini ta'sis etish masalasini qo'yishi mumkin.
- 10.3. Tahririyatni bo'lish, ajratib chiqarish, qo'shib yuborish mumkin emas.
- 10.4. Qayta tashkil etilgan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan so'ng faoliyatini boshlaydi.

XI. NIZOMNI QABUL QILISH VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI

- 11.1. Tahririyat Nizomi O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunga muvofiq muassis tomonidan qabul qilinadi va tasdiqlanadi. Qabul qilingan Nizom qoidalari tahririyatning barcha xodimlari uchun egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar majburiydir.
- 11.2. Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish Nizomni qabul qilish va tasdiqlatishdagi tartib bo'yicha va amaldagi qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

XII. ILMIY MAQOLAGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA PLAGIAT MIQDORI

Maqolalar xalqaro standartlar asosida, ya'ni IMRAD talabi bo'yicha qabul qilinadi. Maqola matnining hajmi – 7000 – 8000 so'zdan iborat bo'lishi kerak. Maqola annotatsiya, kalit so'zlar, kirish, metod, natija, munozara, xulosa kabi bo'limlardan tashkil topgan bo'lishi kerak.

- 12.1. Annotatsiya bitta paragrafdan tashkil topgan bo'lishi kerak. 200-300 so'zdan iborat bo'lib, maqolaning asosiy ma'nosini qisqacha bayon etishi zarur.
- 12.2. Kalit so'zlar qismida 5–10 ta kalit so'z berilishi zarur.
- 12.3. Maqolaning kirish qismi muammoning dolzarbligini ifoda etishi zarur. Bunda avvalgi izlanishlar muhokama qiliniladi va muammo aniqlanadi.
- 12.4. Maqolaning metodlar qismida tadqiqot qanday o'tkazilganligi aniq bayon qilinadi.
- 12.5. Maqolaning natijalar bo'limi tadqiqotning asosiy natijalari aniq va izchil tarzda bayon etiladi.
- 12.6. Maqolaning munozara rukni natijalarni talqin qiladi, umumlashtiradi va mavjud tadqiqotlar bilan solishtiradi.
- 12.7. Maqolaning xulosa qismi eng muhim qismlaridan biri bo'lib, u asosiy g'oyaning ahamiyatini ta'kidlaydi, maqolaga yaxlitlik berishi kerak.
- 12.8. Maqolaning minnatdorchilik ruknida tadqiqotni amalga oshirishda moliyaviy yoki boshqa yordam manbalari ko'rsatiladi.
- 12.9. Maqola matni ichida iqtibos keltirish zarur. Manbalar APA uslubida rasmiylashtiriladi.
- 12.10. Plagiat miqdori 20%, maqolaning orginallik darajasi 80% bo'lishi lozim.